SALJUQIYLAR DAVRI TARIXI YORITILGAN O‘RTA ASRLARGA OID MANBALAR TAHLILI

THE ANALYSIS OF MEDIEVAL SOURCES THAT ILLUMINATED THE HISTORY OF THE SELJUKS

АНАЛИЗ СРЕДНЕВЕКОВЫХ ИСТОЧНИКОВ, ОСВЕЩАЮЩИХ ИСТОРИЮ СЕЛЬДЖУКИДОВ

Rajapov PIRNAZAR SARDOR O‘G‘LI,
INTERNATIONAL ISLAMIC ACADEMY OF UZBEKISTAN
Department History and Source Studies of Islam-IRCICA
PhD student
E-mail: rajapovpirnazar@gmail.com
A.Kadiri str.11, 100011, Tashkent, Uzbekistan.

DOI: 10.47980/IIAU/2023/2/5

Annotatsiya: *Ushbu maqolada saljuqiylar davri tarixi yoritilgan o‘rta asr manbalari tahlil qilingan. Mazkur manbalar musulmon va xristian tarixchilar tomonidan arab, fors, turkiy, yunon, gruzin, arman va suryoniy tillarida yozilgan. Tahlil jarayonida asar muallifi va u yashagan davr ilmiy muhiti, manba yozilgan til, asarning tarkibi va umumiy mazmuni, bugungi kunda manbaning zamonaviy nashrlari va tarjimalari kabi jihatlarga to‘xtalib o‘tildi.*

Tahlil qilingan asarlarning aksariyatini arab va fors tilidagi manbalar tashkil etadi. Saljuqiylar davri tarixi yoritilgan turk tilidagi o‘rta asr manbalari deyarli uchramaydi. Vizantiya manbalari esa Buyuk Saljuqiylarning tarixi bilan faqatgina Anadolu fathi nuqtai nazaridan bog‘liqdir. Shunga qaramay, Vizantiya manbalari Anadolu Saljuqiylari davri tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Gruzin manbalarida esa nafaqat saljuqiylarning Kavkazga harbiy yurishlari, balki Anadoluda aholining turkiylashuv jarayonlari va saljuqiy turklar haqida yorqin ta’rif va ma’lumotlar mavjud. Shuningdek, Anadoluda yashagan arman va suryoniy mualliflarning bevosita tarixiy hodisalarda ishtirok etishi ularga saljuqiy turklar haqida to‘g‘ri va xolisona ma’lumotlar berish imkonini bergan.

Saljuqiylar davri Islom tarixining uch asrini qamrab olgan bo‘lsa-da, bu davrda Islom sivilizatsiyasida erishilgan yutuqlar to‘laqonli ochib berilmagan. Buning sababi saljuqiylar davri tarixi yoritilgan manbalarning salmog‘i bilan bog‘liq. Darhaqiqat, saljuqiylar hukmronligining muhim voqealarga boy bo‘lgan dastlabki davri, ya’ni XI-XII asrlarga oid manbalar keyingi asrlardagi manbalarga nisbatan kamroq. Buning ustiga XI-XII asrlarda yozilgan tarixiy asarlarning aksariyati bizgacha yetib kelmagan.

Kalit so‘zlar: *Bayhaqiy, ibn Javziy, Bundoriy, Ibn al-Adim, Ibn Kalonisiy, Mixail Attales, Anna Kommena, Urfalik Mateos, Abulfaraj, “Zaynul-axbor”, “Siyosatnoma”, “Saljuqnoma”, “Al-Komil fit-tarix”, “Jome at-tavorix”, voqeanoma.*

Annotation: *This article analyzes the medieval sources that illuminate the history of the Seljuks. These sources were written by Muslim and Christian historians in Arabic, Persian, Turkic, Greek, Georgian, Armenian and Syriac languages. During the analysis, the author of the work and the sientific environment of the period in which he lived, the language in which the source was written, the composition and general content of the work, modern editions and translations of the source were touched upon.*

Most of the analyzed works are Arabic and Persian sources. There are almost no medieval sources in the Turkic language that cover the history of the Seljuks. Byzantine sources are related to the history of the Great Seljuks only from the point of view of the conquest of Anatolia. Nevertheless, Byzantine sources are also important in the study of the history of the Anatolian Seljuks.

Georgian sources contain vivid descriptions and information not only about the Seljuk military campaigns to the Caucasus, but also about the processes of Turkification of the population in Anatolia. Also, the participation of Armenian and Syriac authors who lived in Anatolia in historical events allowed them to provide accurate and objective information about the Seljuk Turks.

Although the Seljuks’ period covered three centuries of Islamic history, the achievements of Islamic civilization during this period have not been fully revealed. The reason for this is related to the number of sources covering the history of the Seljuks’ era. In fact, the sources of the first period of the Seljuks’ rule, which was rich in important events, that is, the XI-XII centuries, are less compared to the sources of the later centuries. Moreover, most of the historical works written in the XI-XII centuries have not reached us.

Key Words: *Bayhaqi, Ibn al-Jawzi, Azimi, Bundari, Ibn al-Adim, Ibn Kalanisi, Ibn Bibi, Qazwini, Michael Attaleiates, Anna Comnena, Matthew of Edessa, Abu al-Faraj, “Zayn al-akhbar”, “Siyasatnama”, “Saljuqnama”, “Tarikh al-Fariqi”, “Al-Kamil fi at-Tarikh”, “Jami’ al-tawarikh”, chronicle.*

Аннотация: *В данной статье анализируются средневековые источники, освещающие историю Сельджукидов. Эти источники были написаны мусульманскими и христианскими историками на арабском, персидском, тюркском, греческом, грузинском, армянском и сирийском языках. В статье содержатся сведения об авторах этих источников и научной среде того периода, , языках, на которых написанқ источники, их структуре и общем содержании, современных редакциях и переводах источника на другие языки.*

Большинство проанализированных произведений составляют арабские и персидские источники.

Средневековых источников на тюркском языке, освещающих историю сельджукидов, почти нет. Византийские источники освещают историю Великих Сельджукидов только с точки зрения завоевания Анатолии. Тем не менее, византийские источники также важны при изучении истории анатолийских сельджукидов.

Грузинские источники содержат яркие описания и сведения не только о военных походах Сельджукидов на Кавказ, но и о процессах тюркизации населения Анатолии. Точную и объективную информацию, касающуюся истории Сельджукидов предоставили армянские и сирийские авторы, непосредственно проживавшие в Анатолии и принимавшие участие в событиях того периода.

Хотя период Сельджукидов охватывал три века исламской истории, достижения исламской цивилизации в этот период полностью не изучены. Причина этого связана с количеством источников, освещающих историю эпохи Сельджукидов. На самом деле источники первого периода правления, освещающих историю Сельджукидов XI-XII веков, меньше по сравнению с источниками более позднего времени. При этом до нас не дошло большинство исторических сочинений, написанных в XI-XII веках.

Ключевые слова: *Байхаки, Ибн Джавзи, Бундари, Ибн аль-Адим, Ибн Каланиси, Михаил Атталес, Анна Коммена, Матфей Эдесский, Абульфарадж, "Зайнул-Ахбар", "Сиясатнама", "Салджукнама", "Аль-Камиль фит-тарих", "Джами ат-таварих", хроника.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoev tomonidan 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan PF-60 sonli "2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi farmonining "Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish" ustuvor yo‘nalishida O‘zbekiston tarixini o‘rganish va targ‘ib qilishni yanada rivojlantirish maqsadlari belgilab berilgan. Shu ma’noda aytishimiz mumkinki, Saljuqiylar sulolasi (1040-1308) hukm yuritgan davr ham O‘zbekiston tarixining ajralmas qismi hisoblanadi. Chunki mazkur sulolaning kelib chiqish tarixi va davlatchilik asoslarining shakllanish jarayoni Movarounnahr hududlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, sulola vakillari amalga oshirgan buyuk ishlari bilan tarix zarvaraqlaridan o‘rin olgan.

Saljuqiylar o‘g‘uzlarga mansub Qiniq qabilasidan kelib chiqqan va davlatga esa O‘g‘uz Yabg‘u davlati qo‘mondoni Saljuqning nomini berishgan. Saljuqiylar 766-1055-yillarda Kaspiy va Orol dengizi oralig‘ida hukm surgan O‘g‘uz Yabg‘u davlati parchalangach, undan ajralib chiqib Movarounnahr, Xorazm va Xuroson hududlariga kelib o‘rnashgan. Xususan, Saljuq musulmon aholi yashaydigan Jand shahrida kichik beylik tuzgan va qabiladoshlarini kuchli davlat tuzishlari uchun Islomni qabul qilishga da’vat etgan. Natijada o‘g‘uz qabilalarida Islomiylashuv jarayoni boshlangan. Turkman deb ham ataladigan o‘g‘uzlarning bugungi kunda O‘zbekiston, Turkiya, Ozarbayjon, Eron, Iroq va Turkmaniston davlatlarida istiqomat qiluvchi xalqlarning ajdodlari ekanini XI asrdan hozirgacha bo‘lgan davrda kechgan tarixiy jarayonlar orqali bilamiz. Shuningdek, Saljuqiylar va Usmoniylar sulolalarining ham o‘g‘uzlardan kelib chiqqanini inobatga olsak, o‘g‘uzlar insoniyat tarixida muhim rol o‘ynagan turkiy xalq birligi ekani tushuniladi.

Saljuqiylar davlatining yuzaga kelishi o‘g‘uz turklari tarixida muhim burilish nuqtasidir. Bu davlatning barpo etilishi bilan Islom olami ustidan siyosiy hukmronlik o‘g‘uzlar qo‘liga o‘tib, Anadolu va qo‘shni davlatlar ularning yurtiga aylandi. X asr boshlarida Yaqin Sharqdagi musulmon mamlakatlari siyosiy tarqoqlikka yuz tutgan bir paytda Vizantiya imperiyasi qadam baqadam musulmonlar ta’sir doirasidagi yerlarni egallayotgandi. O‘g‘uz turklari ana shunday murakkab vaziyatda musulmonlar boy bergan hududlarni Vizantiyadan qaytarib olish bilan kifoyalanmay, balki uning Osiyo qit’asidagi tayanchi o‘lkasi Anadoluni fath qilib, Vizantiya imperiyasining zaiflashishiga sababchi bo‘lishgan.

USLUBLAR

Saljuqiylar davri Islom tarixining uch asrini qamrab olgan bo‘lsa-da, bu davrda Islom tamaddunida erishilgan yutuqlar to‘laqonli ochib berilmagan. Buning sababi saljuqiylar davri tarixi yoritilgan manbalarning salmog‘i bilan bog‘liq. Darhaqiqat, saljuqiylar hukmronligining muhim voqealarga boy bo‘lgan dastlabki davri (XI-XII asrlar) ga oid manbalar keyingi asrlardagi manbalarga nisbatan kamroq.

Buning ustiga XI-XII asrlarda yozilgan tarixiy asarlarning aksariyati bizgacha yetib kelmagan. Jumladan, Ali ibn Abulfaraj Basriyning "Siyrat al-malik To‘g‘rulbek as-saljuqiy", muallifi noma’lum "Risolayi Malikshoh", Ali ibn Mahmud Qayiniyning "Mafohirul-atrok", Muizziyning "Siyar va futuhi sulton Sanjar", Abu Tohir Xotuniyning "Shikornoma" kabi asarlari bugungi kungacha yetib kelmagan bo‘lib, biz shunday asarlar mavjud bo‘lganini keyingi davr mualliflari o‘z kitoblarini yozishda ulardan manba sifatida foydalanib, iqtibos keltirishganidan bilamiz (O.Turan, 1969:1-2).

Saljuqiylar davri tarixi yoritilgan manbalarni xronologik nuqta'i-nazardan uch guruhga bo'lishimiz mumkin:

I. Saljuqiylar davrida yozilgan manbalar
II. Saljuqiylar davriga yaqin zamonda yozilgan manbalar
III. Saljuqiylar davri tarixi yoritilgan zamonaviy ilmiy-tadqiqotlar

Alohida ta'kidlash joizki, saljuqiylar davri tarixi yoritilgan o'rta asr manbalarining aksariyati arab va fors tillarida bitilgan.

Saljuqiylar davri tarixi yoritilgan turk tilidagi o'rta asr manbalari deyarli uchramaydi. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otut-turk" asari tarixiy ma'lumotlari kamligiga qaramay, saljuqiylar madaniyati va o'sha davr etnografiyasi nuqta'i-nazaridan birlamchi manbalardan hisoblanadi.

Shuningdek, Vizantiya, gruzin, suryoniy va arman manbalari ham saljuqiylar davri tarixini o'rganishda muhim o'rin tutadi.

NATIJA

Mazkur maqolada saljuqiylar davri va ularga yaqin zamonda yashagan mualliflarning asarlariga to'xtalib o'tamiz. Bu davr manbalarining aksariyati arab va fors tillarida bitilgan.

Abulfazl Bayhaqiy (994-1066) ning "Tarixi Bayhaqiy" asari fors tilida bitilgan va taxminan 30 jilddan iborat bo'lgan. Asar 1018-1059-yillar oralig'idagi tarixni qamrab olgan bo'lib, bizgacha 1030-1041-yillar oralig'idagi voqealar yetib kelgan, xolos (T.Yazıcı, 2011:74-75). Asarda saljuqiylar davlatining ilk davrlari va Dandanakon jangi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Asarning bugungi kungacha yetib kelgan qismlari fors, arab, rus tillarida nashr qilingan. Ba'zi qismlari ingliz, nemis, turk tillariga tarjima qilingan.

Gardiyziyning "Zaynul-axbor" asari g'aznaviylar sultoni Zaynul-milla Abu Mansur Abdurashidga bag'ishlangan bo'lib, taxminan 1050-yili fors tilida yozilgan (O.Bilgin, 1996:29-30). Asarda o'g'uzlar, saljuqiylarning qoraxoniylar va g'aznaviylar bilan qo'shnichilik munosabatlari, saljuqiylar va g'aznaviylar o'rtasidagi Niso, Saraxs va Dandanakon janglari haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud (G.B.Okudan, 2022:282-284). Asar ingliz va fors tillarida nashr qilingan hamda rus, venger va arab tillaridagi tarjimalari ham mavjud.

Nizomulmulk (1018-1092) ning "Siyosatnoma" asari fors tilida yozilgan bo'lib, 50 bobdan iborat. Sulton Malikshoh (1072-1092) butun mamlakat bo'ylab davlat boshqaruviga oid kitoblar yozish bo'yicha farmon beradi va unga yozilgan asarlar orasida Nizomulmulk tomonidan 1092-yil tugallangan "Siyosatnoma" ma'qul bo'ladi (A.Özaydin, 2007:194-196). Buyuk Saljuqiylar davrida Islom sivilizatsiyasida erishilgan yutuqlar, turli musulmon mamlakatlari davlat boshqaruv tizimi haqida ma'lumot beruvchi asar "Siyarul-muluk" nomi bilan ham mashhurdir. Asarda, asosan, davlat boshqaruv ishlarida sultonga berilgan maslahatlar o'rin olgan. Xususan, sulton va vazirning vazifalari, davlat xazinasi, saltanat urf-odatlari, elchi va mehmon kutib olish odoblari, sultonning yaqin kishilari va tan soqchilari, davlat xavfsizlik xizmatchilari, davlatlararo munosabatlar, qozilik va hukm, voliylar, iqtodorlar, qo'shin va uning harbiy tayyorgarligi kabi saroy va ma'muriy-boshqaruv ishlari bilan bog'liq barcha tamoyillar hamda qonun-qoidalar belgilab berilgan. Asarning fors tilida zamonaviy nashrlari amalga oshirilgan va nemis, fransuz, ingliz, rus, arab, turk, ozariy turk, o'zbek, qisman italyan tillariga ham tarjima qilingan.

Ibn Kalonisiy (vaf. 1160) ning "Zaylu tarixi Damashq" asarida Ixshidiylar sulolasi hukmronligining so'nggi davrlaridan to Nuriddin Zangiyning Damashqni fath qilishiga qadar kechgan tarix bayon qilingan. Asarning dastlabki sahifalarida voqealar voliylar boshqaruvi davri bilan 1057-yildan boshlab yilma-yil yoritilgan. I salb yurishlarida musulmonlar va salbchilar orasida kechgan voqealar ilk marotaba batafsil yoritilgan manbadir (A.Sevim, 2008:1-43). Asar saljuqiylar davridagi Shom tarixi bo'yicha birlamchi manba hisoblanadi. Asarda Buyuk Saljuqiylar davrida botiniylarning Suriyadagi f aoliyati: ular tomonidan egallangan qal'alar va qatl qilingan amaldorlar, xususan, sulton Muhammad Tapar va sulton Sanjar davridagi botiniylarga qarshi olib borilgan kurashlar o'rin olgan. Asar arab, qisman ingliz va fransuz tillarida nashr qilingan.

Azimiy (1091-1161) ning Mosul otabegi Imomiddin Zangiyga bag'ishlangan "Tarixul-azim" asarida insoniyat tarixining ilk davridan 1144-yilgacha bo'lgan voqealar yoritilgan (A.Sevim, 1991:330-331). Asarda Buyuk Saljuqiylar davlatining shakllanish jarayoni, o'g'uzlarning Ozarbayjonga yurishlari, Hasanqal'a (Pasinler) jangi (1048-yil), Qutalmishning Kars shahriga yurishi, Ibrohim Yinalning isyonlari, Alp Arslonning Suriyaga harbiy safari va Malazgirt jangi, Sulaymonshohning Iznik va Antokiyani qo'lga kiritishi, Sulaymonshohning Halabni qamal qilishi va Kurzahil jangida Sharafuddavla Muslim bilan to'qnashuvi, Sulaymonshohning Aynu Saylam mavzeyida Tutushga qarshi kurashi va muhorabada halok bo'lishi bayon qilingan.

Fransuz sharqshunosi Claude Cahen 1938-yil asarning 1063-1144-yillar tarixiy voqealarini qamrab olgan qismini nashr qilgan (A.D.Kuşçu, C.Güler, M.Özer, M.Öztemel, 2017:32). Lekin Ali Sevim Cl. Cahenning nashrida arab tili grammatik qoidalariga rioya qilinmagani va ko‘p o‘rinlarda asl nusxadagi ba’zi matnlar keltirilmaganligini ta’kidlab o‘tgan. Ali Sevim ham asarning saljuqiylar davriga bog‘liq qismini turk tilida nashr ettirgan.

Imom Zahiruddin Nishopuriy (vaf. 1186) ning “Saljuqnoma” asari Iroq Saljuqiylarining so‘nggi sultoni To‘g‘rul III (1177-1194) ga bag‘ishlangan bo‘lib, fors tilida yozilgan. Asarda saljuqiylar sulolasining tarix sahnasiga chiqishidan boshlab 1186-yilgacha kechgan voqealar yoritilgan (O.G.Özgüdenli, 2013:102-103). Muallif asarini Buyuk Saljuqiylar va Iroq Saljuqiylari sultonlarining hukmronlik davri bo‘yicha 14 bobga ajratgan. Bu boblarda har bir sultonning shaxsiy fazilatlari va hukmronligi davrida sodir bo‘lgan siyosiy voqealar o‘rin olgan. Shuningdek, har bir bob oxirida sultonlarning tug‘ilgan va vafot etgan sanalari, vazir va hojiblari ro‘yxati qayd etilgan. Muallif voqealarni tafsiloti bilan ochib berishiga qaramay, ijtimoiy-madaniy hayot va davlat boshqaruvi jihatlariga kamroq e’tibor qaratgan. Asarda qisqa she’rlar ham uchraydi. Nishopuriy asariga o‘zi guvohi bo‘lgan voqealar bilan bir qatorda boshqalardan eshitganlarini ham kiritgan. Asar fors tilida nashr qilingan.

Ibn Azraq (1117-1181) ning “Tarix al-fariqi” yoki “Tarixi Mayyafariqin va amid” asarining alohida ikkita nusxasi bo‘lib, ulardan mufassali 1176-yilgacha bo‘lgan voqealarni qamrab olgan (M.Kemaloğlu, 2013:15). Asarda muallif Mayyafariqin, Amid, Mosul, Mardin, Bag‘dod, Shom, Gurjiston shaharlarida bo‘lgan chog‘larida o‘zi guvohi bo‘lgan hodisalar, turkmanlarning Anadoludagi yurishlari va Anadolu Saljuqiylar davlatining tashkil topish jarayoni, Elg‘oziy, Imoduddin Zangiy, Nuriddin Mahmud Zangiy davrlari haqida qimmatli ma’lumotlar keltirgan (G.Ercan, 2012:3-13). Bundan tashqari, Mustarshid billah, Rashid billah va Muktafi liamrillah xalifaligi davrlaridagi abbosiylar va saljuqiylar do‘stona munosabatlari yoritilishi nuqta’i nazaridan diqqatga sazovor manba hisoblanadi. Asarning marvoniylar (“Tarix al-fariqi”) va ortuqiylar (“Tarixi Mayyafariqin va amid”) haqidagi qismlari alohida-alohida nashr qilingan. Asar arab, turk, qisman ingliz, rus tillarida chop etilgan.

Abulfaraj ibn al-Javziy (1116-1201) ning “al-Muntazam fi tarix al-muluk va-l-umam” asarida dunyo yaratilishidan 1179-yilgacha bo‘lgan voqealar haqida so‘z boradi (Y.Ş.Yavuz, 1999:545). Asar Saljuqiylar davlatining tashkil topish jarayoni, Qutalmish va Ibrohim Yinalning Vizantiyaga qarshi harbiy yurishlari, sulton Alp Arslonning taxtga chiqishi va Malazgirt g‘alabasi, Kavurdbeyning saltanat uchun sulton Malikshohga qarshi kurashi, saljuqiylar va abbosiylar sulolalari munosabatlari yoritilgan muhim manba hisoblanadi. Asar to‘lig‘icha arab tilida (17 jild), 15-16-jildlarining 1038-1092-yillar oralig‘i saljuqiylar tarixi bayon qilingan qismlari esa turk tilida nashr qilingan.

Saljuqiylar tarixining muhim manbalaridan biri bo‘lgan “Axbor ad-davlat as-saljuqiyya” asari muallifi Sadriddin Abulhasan Husayniy (vaf. 1194) ekanligi aniq emas. Asarning unga nisbat berilishiga sabab Sadriddin Abulhasan Ali ibn Nosir al-Husayniy nomi asar matnida ikki o‘rinda tilga olingan (A.D.Kuşçu, C.Güler, M.Özer, M.Öztemel, 2017:32). “Axbor ad-davlat as-saljuqiyya” asarida Saljuqbey va uning qabilasining tarix sahnasiga chiqishidan boshlab sulton To‘g‘rul III vafoti (1194), ya’ni Iroq Saljuqiylari davlatining qulashigacha bo‘lgan tarixi yoritilgan (M.Kesik, 2010:7). Muallif og‘zaki tarix va o‘z kuzatuvlari asosida Buyuk Saljuqiylar davlati, Iroq va Kirmon saljuqiylari haqida qimmatli ma’lumotlar bergan. Asar arab va turk tillarida nashr qilingan hamda rus, fors, ingliz tillaridagi tarjimalari ham mavjud.

Muhammad ibn Ali ar-Rovandiy (vaf.1207) 1181-yildan Iroq Saljuqiylarining so‘nggi hukmdori sulton To‘g‘rul III ga xizmat qila boshlagan. Iroq Saljuqiylari davlati qulagach, Anadoluga borgan va Anadolu Saljuqiylari sultoni G‘iyosiddin Kayxusravning ikkinchi bora hukmronligi davri (1205-1211) da unga bag‘ishlab, “Rohat as-sudur va oyat as-surur” asarini yozgan. Asar fors tilida yozilgan bo‘lib, saljuqiylarning tarix sahnasiga chiqishidan 1194-yilgacha bo‘lgan tarixini o‘z ichiga olgan (M.Kesik, 2010:7). Asarning eng muhim qismi Iroq Saljuqiylari sultonlari Arslonshoh va Tug‘rul III davr (1160-1194) larini qamrab olgan qismidir. Asar fors va turk tillarida nashr qilingan.

Ibn Asir (1160-1233) ning umumiy tarixga oid “Al-Komil fit-tarix” asari 11 jilddan iborat bo‘lib, insoniyat tarixining ilk davrlaridan 1230-yilgacha bo‘lgan voqealarni o‘z ichiga olgan. Muallif 915-yilgacha bo‘lgan voqealarni bayon qilishda Tabariy (839-923) ning “Tarix ar-rusul va-l-muluk” asaridan foydalangan (R.Şeşen, 1998:138-139; A.Özaydın, 2000:26-27). Asarning so‘nggi jildlarida saljuqiylar va Mosul otabeglari haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan. Xususan, VIII jildida To‘g‘rul, Choribey va Alp Arslonlarning faoliyatlari, Qutalmishning taxt uchun sulton Alp Arslonga qarshi kurashi, Malazgirt jangi, sulton Malikshoh hukmronligi davri haqida so‘z boradi. Shuningdek, VIII-IX jildlarida

Hasan Sabboh (vaf. 1124) ning hayoti va faoliyati, Nizomulmulkning o‘ldirilishi, botiniylar qo‘lga kiritgan qal’alar va ularning qal’alarni egallash taktikalari, Shohdiz qal’asidagi kurashlar, botiniylarning muhim davlat arboblariga qarshi suiqasd uyushtirish jarayonlari, Buyuk Saljuqiylar va botiniylar o‘rtasidagi kurashlar bilan bog‘liq voqealar batafsil yoritilgan. Asar Arab, eski turkiy, turk va qisman fransuz, rus, fors tillarida nashr qilingan.

Sibt ibn al-Javziy (1186-1256) ning “Mir’atuz-zamon fi tarixul-ayon” nomli asari insoniyat tarixining ilk davrlaridan 1257-yilgacha bo‘lgan tarixiy voqealarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, arab tilida bitilgan (A.D.Kuşçu, C.Güler, M.Özer, M.Öztemel, 2017:35). Asarda Qutalmishning sulton To‘g‘rulga qarshi isyoni va taxt uchun Alp Arslonga qarshi mujodalasi, Sulaymonshoh ibn Qutalmishning Anadolu, Suriyadagi fathlari va uning Sharafuddavla Muslim, Tutush bilan to‘qnashuvlari, Buyuk Saljuqiylarning Suriyada botiniylarga qarshi olib borgan kurashlari, botiniylar tarafidan qatl qilingan shaxslar haqida ma’lumotlar mavjud.

Asarning asl nusxasi taxminan 30 jilddan ortiq bo‘lgan. Qutbiddin al-Yuniniy (1242-1326) asarning ba’zi qismlarini tashlab o‘tib, 21 jild holiga keltirgan (R.Şeşen, 1998:144). Asar to‘lig‘icha arab va ba’zi qismlari fransuz tilida, To‘g‘rul, Alparslon, Malikshoh davriga oid qismlari esa Ali Sevim tomonidan turk tilida nashr qilingan.

Iroq Saljuqiylari vaziri Anushervon ibn Xolid (1066-1138) o‘zining tarixiy xotiralari asosida fors tilida “Futuru zaman as-sudur va suduru zaman al-futur” asarini yozgan va unda 1134-yilgacha bo‘lgan voqealar bayon qilingan. Mazkur asar Imoduddin Kotib Isfahoniy tomonidan forschadan arab tiliga tarjima qilinib, “Nusrat al-fatra va usrat ul-fitra” nomi bilan 1194-yilgacha bo‘lgan tarix aks ettirilgan asar holiga kelgan. 1226-yil Bundoriy (1190-1245) asarning asl matnidagi iboralarni o‘zgartirmay, “Zubdat an-nusra va nuhbat al-usra” nomi bilan Iroq va Xuroson Saljuqiylari tarixini yorituvchi muxtasar asar shakliga keltirgan (M.Kemaloğlu, 2013:14). Asarda botiniylar bilan hamkorlik qilgan saljuqiy amaldorlar faoliyati, Nizomulmulkning o‘ldirilishi, amir Shirg‘irning Alamut qal’asini qamal qilishi, vazir Sa’dulmulkning botiniylikda ayblanib o‘ldirilishi, xususan, sulton Sanjar davrida saljuqiylarning botiniylarga qarshi olib borgan kurashlari batafsil yoritilgan. Asar arab va turk tillarida nashr qilingan.

Ibn al-Adim (1193-1262) ning “Bug‘yatut-talab fi tarixi Halab” asarining 10 jilddan ortig‘i bizgacha yetib kelgan. Asarda sulton Alp Arslonning tarjimayi holi, sulton Muhammad Taparning botiniylarga qarshi yurishlari, sulton Muhammad Tapar va sulton Sanjar hukmronligi davrida botiniylar suiqasdi qurboni bo‘lgan davlat arboblari, Suriyada botiniylar bilan bo‘lgan janglar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Asar to‘lig‘icha arab tilida (12 jild) nashr qilingan. Asarning saljuqiylarga doir qismlari Ali Sevim tomonidan “Biyografilerle Selçuklular Tarihi” nomi ostida turk tiliga tarjima qilingan.

Shuningdek, Ibn al-Adimning “Zubdatul-Halab min tarixi Halab” nomli asari ham bo‘lib, u “Bug‘yatut-talab fi tarixi Halab” ning muxtasar shaklidir. Unda 1243-yilgacha bo‘lgan voqealar keltirilgan (A.Sevim, 1999:478-479). Asarda Sulaymonshohning Suriyadagi fathlari, Kurzahil, Aynu Saylam jangi tafsilotlari keltirilgan. Asar to‘lig‘icha arab va 3 jild shaklida fransuz tilida, saljuqiylarga doir qismi esa turk tilida nashr qilingan.

Asl ismi Nosiruddin Ali bo‘lgan Ibn Bibi (vaf.1285) ning “Al-Avamirul-ala’iyya fi-l-umuril-ala’iyya” voqeanomasi Alouddin Otamalik Juvayniyning xohishiga binoan yozilgan bo‘lib, fors tilida bitilgan. Juvayniyning “Tarixi jahonkushoy” asarining davomi sifatida muallif voqeanomani Malazgirt zafaridan so‘ng Anadoluda fathlarni davom ettirgan Mangujek, Ortuq, Donishmandbeylar va Anadolu Saljuqiylarining ilk sultoni Sulaymon ibn Qutalmish (1075-1086) ning hayoti va faoliyatlarini yoritish bilan boshlagan (M.Kemaloğlu, 2013:6). Keyin orada katta davriy uzilish bilan voqealar G‘iyosiddin Kayxusrav I (1192-1196, 1205-1211) davridan boshlanadi. Ehtimol, muallif Anadolu Saljuqiylar davlatining ilk davrlari haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lmagan. Shunga qaramay, asar Anadolu Saljuqiylari davlatining 1192-1280-yillar oralig‘idagi tarixi bo‘yicha birlamchi manbalardan hisoblanadi. Muallif G‘iyosiddin Kayxusrav I, Izzuddin Kaykovus I (1211-1220) va Alouddin Kaykubod I (1220-1237) davrlarini yoritishda zamondoshi Qooniy (vaf.1273) ning “Saljuqnoma” asaridan foydalangan. Alouddin Kaykubod I davridan davlat ishlarida xizmatda bo‘lgan muallif 1280 yilgacha, ya’ni o‘zi yashagan davrga tegishli bo‘lgan voqealarni muxtasar shaklda bayon qilgan. Shuningdek, Ibn Bibi Alouddin Kaykubod I davrida Karamoniylarning Anadoluga kelib o‘rnashishi va keyinchalik ularning Muhammadbey, Xotir o‘g‘li boshchiligida mo‘g‘ullarga qarshi kurashi, Anadolu Saljuqiylari va Elxoniylarning tashqi siyosiy aloqalari haqida ham ma’lumot bergan. Asarni XIII asrdagi Islom madaniyatini aks ettiruvchi manba deyish mumkin. Ibn Bibi asarda Anadoluning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’muriy-boshqaruv va madaniy

hayotidan ham lavhalar keltirgan. Muallif asar nomidagi "ala'iyya" kalimasining birinchisi bilan kitobning ta'lif qilinishiga sabab bo'lgan Alouddin Otamalik Juvayniyni va ikkinchisi bilan Alouddin Kaykubod I ni nazarda tutgan bo'lsa kerak.

Asar sulton Murod II (1421-1444, 1446-1451) davrida Yazijizoda Ali tomonidan "Tarih-i Âl-i Selçuk" yoki "Oğuznâme" nomi bilan usmonli turk tiliga tarjima qilingan (M.Kemaloğlu, 2013:7). Shuningdek, asar turk, nemis va fransuz tillarida ham nashr qilingan.

Karimuddin Oqsaroy (vaf.1332-1333) ning "Musomarat al-axbor va musoyarat al-axyor" voqeanomasi Elxoniylarning Anadoludagi voliysi Temurtoshga bag'ishlangan bo'lib, fors tilida bitilgan. Karimuddin Oqsaroy Elxoniylar davrida Anadoludagi moliya vazirligida ishlagan. Qozonxon davri (1295-1304) da Anadolu vaqf tashkilotida mutavalli vazifasini bajargan (İ.Aka, 1989:293). Asarda Umaviylar (661-750), Abbosiylar (750-1258) va Buyuk Saljuqiylar davlatlari haqida qisqacha tarixiy ma'lumotlar mavjud. Asarning 2/3 qismi Anadolu Saljuqiylari tarixini qamrab olgan bo'lib, G'iyosiddin Kayxusrav II (1237-1246) hukmronligi davridan boshlab voqealar batafsil yoritilgan. Elxoniylar davrida Anadoluda yuz bergan fojealarning guvohi bo'lgan muallif voqealarni tafsilotlari bilan qog'ozga tushirgan va butun qabohatlarni moliya ma'murlari va no'yonlar zimmasiga yuklagan. Elxoniylarning Anadoludagi voliysi Temurtoshni "Xusravi Odil Mahdiyi Zamon" deya sifatlab, unga hurmat ko'rsatgan. Asar fors va turk tillarida nashr qilingan.

Elxoniylar davlati (1256-1353) vazirlaridan Rashiduddin Fazlulloh (1247-1318) ning "Jome at-tavorix" asari umumiy tarixga oid bo'lib, fors tilida bitilgan. Asar 2 jilddan iborat. Uning saljuqiylar haqidagi qismini alohida asar deyish mumkin. Asarda saljuqiylar sulolasining nasl-nasabi, Arslon Yabg'uning tutqunlikka mahkum qilinishi, Buyuk Saljuqiylar davlatining shakllanish jarayoni, Qutalmishning taxt uchun sulton Alp Arslonga qarshi kurashi va qisqacha Sulaymonshohning faoliyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Asarning mo'g'ullarga oid qismini E.M. Quatremer va II jildining Fransiya tarixi bilan bog'liq bo'limini J. Karl fransuz tiliga hamda ba'zi bo'limlarini N.Berezin rus tiliga tarjima qilgan (Reşidud-din, 2010:8; R.Şeşen, 1998:236; A.D.Kuşçu, C.Güler, M.Özer, M.Öztemel, 2017:62). "Jome at-tavorix" asari to'lig'icha fors, ba'zi bo'limlari rus, fransuz tillarida va saljuqiylar haqidagi qismi esa turk tilida nashr qilingan.

Hamidulloh Mustavfiy Qazviniy (1281-1340) ning "Tarixi Guzida" asari umumiy tarixga oid bo'lib, fors tilida yozilgan. 1330-yilda yozib tugallangan asar muqaddima, 6 bob va xotimadan iborat (A.Özaydın, 1997:454-455; R.Şeşen, 1998:241; A.D.Kuşçu, C.Güler, M.Özer, M.Öztemel, 2017:56-57). Asarning IV bob oltinchi fasli "Saljuqiy hukmdorlar zikri" sarlavhasi ostida Saljuqiylar davriga ajratilgan. Asarda Saljuqiylar davlatining tashkil topish jarayoni, Buyuk Saljuqiylar, Iroq, Kirmon va Anadolu Saljuqiylari davri tarixi yoritilgan.

Asar to'lig'icha ingliz va fors tillarida, Qazvin shahri tarixi va geografiyasi (VI bob) hamda Islom davridagi Eron tarixi bilan bog'liq qismi franzus tilida, saljuqiylarga oid qismi fransuz va turk tillarida nashr qilingan. Hamidulloh Mustavfiyning o'g'li Zaynuddinning "Tarixi Guzida"ga 1342-1392-yillar tarixini ilova sifatida kiritgan qismi D.Qazimov va Z.Buniyatov tomonidan 1990-yil Bokuda forsiy tildagi matni rus, ozarbayjon tillaridagi tarjimasi bilan birgalikda nashr qilingan (A.Özaydın, 2011:82-83).

Ibn Kasir (1302-1373) ning "Al-Bidoya va-n-nihoya" asari umumiy tarixga oid bo'lib, 15 jilddan iborat. Asarda insoniyat tarixining ilk davrlaridan 1365-yilgacha bo'lgan voqealar xronologik ketma-ketlikda yoritilgan (A.D.Kuşçu, C.Güler, M.Özer, M.Öztemel, 2017:42-43). Asarning oxirgi jildlarida Buyuk Saljuqiylar va Anadolu Saljuqiylari tarixiga oid ma'lumotlar mavjud. Lekin Qutalmish va Sulaymonshoh faoliyati haqidagi ma'lumotlar juda kam.

Usmoniylar davrida asar Mahmud Shirvoniy tomonidan usmoniy turk tiliga tarjima qilinib, sulton Murod II ga taqdim qilingan (R.Şeşen, 1998:197). Asar arab va turk tillarida nashr qilingan.

MUHOKAMA

Vizantiya manbalari Buyuk Saljuqiylarning tarixi bilan faqatgina Anadolu fathi nuqta'i nazaridan bog'liqdir. Shunga qaramay, Vizantiya manbalari Anadolu Saljuqiylari davri tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda Vizantiya tarixchilarida mintalitet va imperiya g'ururi ustunlik qilib, saljuqiylar qarshisidagi mag'lubiyatlari va ularga qarshi ahdlarini o'zlaricha talqin qilishlari ba'zida vizantiyaliklarning ham saljuqiy turklar haqida noto'g'ri xulosa chiqarish va asl tarixiy haqiqatni anglab yetmasliklariga sabab bo'lgan.

Mixail Attales (vaf. 1080) ning "Tarix" asari 1025-1080-yillar oralig'idagi tarixiy voqealarni qamrab olgan (Y.Ayönü, 2009:1-8). U harbiy sudya sifatida Roman IV Diogen (1068-1071) ning harbiy yurishlarida qatnashgan. Asarda saljuqiy turklarning Anadoludagi

fath harakatlari, Vizantiya va saljuqiy turklar o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar va janglar qayd qilingan (M.Attaleiates:2008:262-263). Asar yunon, fransuz, turk tillarida nashr qilingan.

Naqfur Bruno (1062-1137) “Tarix” asarida 1070-1079-yillar oralig‘idagi voqealarni bayon qilgan (N.Brennios, 2008:6-7; A.D.Kuşçu, C.Güler, M.Özer, M.Öztemel, 2017:68). Asarda Anadoludagi turkiylashish jarayoni, isyonchi Naqfur Botanesning Sulaymonshoh yordamida imperator bo‘lishi, Sulaymonshohning vizantiyalik qo‘zg‘olonchilarni qo‘llab-quvvatlab shahar va qal’alarni qo‘lga kiritgani haqida so‘z yuritilgan. Asar yunon va turk tillarida nashr qilingan.

Anna Kommena (1083-1153) ning “Aleksiad” nomli asarida saljuqiy turklarning Anadolu g‘arbidagi fathlari va Vizantiya hamda saljuqiylar o‘rtasidagi kurashlar batafsil yoritilgan (M.Kemaloğlu, 2004:1-8). Xususan, muallif Sulaymonshohning Vizantiya imperatorlari bilan tuzgan ittifoqlari, sulton Malikshohning Sulaymonshohni bo‘ysundirish uchun harakatlari, Anadolu Saljuqiylari va Vizantiya imperiyasi o‘rtasida tuzilgan Drakon shartnomasi, Sulaymonshohning Buyuk Saljuqiylar davlatiga qarshi kurashi bilan bog‘liq ma’lumotlar qayd etgan (A.Komnena, 1996:5-6; A.D.Kuşçu, C.Güler, M.Özer, M.Öztemel, 2017:69-70). Asarda, asosan, siyosiy jarayonlar ochib berilgan bo‘lib, saljuqiy turklarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid ma’lumotlar juda kam. Asar ingliz, fransuz, nemis, turk tillarida nashr qilingan.

Ioann Zonara (vaf. 1159) ning “Tarixlar to‘plami” asari olam yaratilishidan to 1118-yilgacha bo‘lgan tarixni o‘z ichiga olgan. Zonara saljuqiy turklarning Anadoludagi harbiy harakatlari, xususan, Sulaymonshohning faoliyati haqida qimmatli ma’lumotlar bergan (M.Kemaloğlu, 2013:19). Muallif Anna Kommena va Naqfur Bruno kabi Vizantiya tarixchilaridan farqli o‘laroq, voqealarga xolisona yondashgan. Asar yunon, lotin, fransuz, nemis, turk tillarida nashr qilingan.

Gruzin manbalarida esa nafaqat saljuqiylarning Kavkazga harbiy yurishlari, balki Anadoluda aholining turkiylashuv jarayonlari va saljuqiy turklar haqida yorqin ta’rif va ma’lumotlar mavjud. Jumladan, Mariya Felisit Brossetning “Gurjiston tarixi asari.

Anadoluda yashagan arman va suryoniy mualliflarning bevosita tarixiy hodisalarda ishtirok etishi ularga to‘g‘ri ma’lumot berish imkonini bergan. Saljuqiylar tarixi bilan bog‘liq ma’lumotlar uchraydigan arman manbalariga Urfalik Mateosning “voqeanoma”si, Vardon (1198-1271) ning “Jahon tarixi”, Aknerlik Grigor (1250-1335) ning “Kamonchi millatning tarixi”, va suryoniy manbalariga Grigoriy Abulfarajning “xronologiya”si, Suriyalik Patrik Mixail (1126-1199) “Voqeanoma”si yorqin misol bo‘la oladi.

Urfalik Mateos (1070-1137) ning “voqeanoma”sida 952-1136-yillar oralig‘idagi tarix yoritilgan (M.Kesik, 2010:8). Uning asariga rohib Grigoriy 1163-yilgacha bo‘lgan voqealarni ilova qilgan (Y.Ayönü, 2007:19). Asar 3 jilddan iborat. I jild 952-1052-yillar, II jild 1053-1102-yillar, III jild 1102-1136-yillarni qamrab olgan. II va III jildlarda saljuqiy turklarning Anadoludagi harbiy harakatlari haqida ma’lumotlar mavjud (H.D.Andreasyon, 1949:104). Muallif o‘zi guvohi bo‘lgan yoki boshqalardan eshitgan voqealarni yozgan. Mateos saljuqiy turklarning ilk harbiy yurishlari haqida salbiy munosabat bildirishiga qaramay, keyinchalik ularni adolatli va rahmdil deya maqtagan. Shuningdek, vizantiyaliklardan ko‘rgan zulmlari tufayli ularga nisbatan nafratini ochiq namoyon qilgan. Asar arman, nemis, turk va qisman fransuz tillarida nashr qilingan.

Grigoriy Abulfaraj (1225-1286) ning suryoniy tilidagi “xronologiya”si (“Abulfaraj tarixi”) ham saljuqiylar davri bo‘yicha birlamchi manbalardan hisoblanadi. U Elxoniylarning Anadolu Saljuqiylar davlatiga ilk hujumlarining guvohi bo‘lgan va ana shu davrdan boshlab to vafotiga qadar (1286/1292) ko‘rgan-kechirganlarini jamlab, kitob holiga keltirgan.

Mo‘g‘ullar bilan yaxshi munosabatda bo‘lgan Abulfaraj 1264-yilda Xulagu tomonidan “Tikrit va sharq mitropoliti” unvoni bilan Eron, Iroq, Ozarbayjon kabi qadimgi Sosoniylar o‘lkalarida yashagan Ya’qubiy xristianlarning Antioxiya patriarxidan keyingi o‘rinda turuvchi ruhoniy lavozimiga tayinlangan.“Abulfaraj tarihi” asari G‘arb davlatlarida 1691-yildan nashr qilina boshlangan. 1932-yil E.W.Bujning suryoniychadan inglizchaga qilgan tarjimasi asosida 1945-yil Ö.R.Doğrul tomonidan turk tilida nashr qilindi (A.Özaydın, 2000:92-94). Asarning ba’zi qismlari arab tilida ham nashr qilingan.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, Shimoliy Afrikadan tashqari deyarli butun Islom olamiga hukmronlik qilgan saljuqiylar davrida Islom sivilizatsiyasi tarixida yangi davr boshlandi. Saljuqiylar davri Islom tarixining uch asrini qamrab olgan bo‘lsa-da, bu davrda Islom tamaddunida erishilgan yutuqlar to‘laqonli ochib berilmagan. Hatto, saljuqiylar davri tarixini buzib ko‘rsatib, noto‘g‘ri talqin qilish holatlari ham kuzatilgan. Buning sababi, birinchidan, saljuqiylar tarixi Xitoy chegaralaridan to O‘rta yer dengizi sohillarigacha bo‘lgan mamlakatlar, qabila va elatlarni

o‘z ichiga olganligi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, turli tillardagi manbalarning mavjudligi, ba’zilarining tartibsizligi va ba’zi davrlarga oid ma’lumotlarning yetarli emasligi keng qamrovli davrni o‘rganishni qiyinlashtiradi. Darhaqiqat, saljuqiylar hukmronligining muhim voqealarga boy bo‘lgan dastlabki davri (XI-XII asrlar) ga oid manbalar keyingi asrlardagi manbalarga nisbatan kamroq.

Bundan XI-XII asrlarda Saljuqiylar davlatida tarixiy asarlar yozishga e’tibor qaratilmagan, degan xulosaga bormasligimiz lozim. Chunki, XI-XII asrlarda yozilgan tarixiy asarlarning aksariyati bizgacha yetib kelmagan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Abdülkerim Özaydın. Hamdullah yel-Müstevfî // Türkie Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. C. 15. – İstanbul: TDVY, 1997. – S. 454-455.
2. Abdülkerim Özaydin. Nizâmülmülk // Türkie Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. C.33. – İstanbul: TDVY, 2007. – S. 194-196.
3. Abdülkerim Özaydın. Tarih-i-Guzide // Türkie Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. C. 40. – İstanbul: TDVY, 2011. – S. 82-83.
4. Abdülkerim Özaydın. İbnü’l-Esîr, İzzeddin // Türkie Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. C. 21. – İstanbul: TDVY, 2000. – S. 26-27.
5. Abdülkerim Özaydın. İbnü’l-İbrî. // Türkie Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. C. 21. – İstanbul: TDVY, 2000. – S. 92-94.
6. Ali Sevim. Azimi // Türkie Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. C.4. – İstanbul: TDVY, 1991. – S. 330-331.
7. Ali Sevim. İbnü’l-Kalânisî’nin Zeylü Tarih-i Dımask adlı aserinde Selçuklularla ilgili bilgiler I (1044-1106) // Belgeler. 29.Cilt. Sayı 33, 2008. – S. 1-43.
8. Ali Sevim. İbnü’l Adim // Türkie Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. C. 20. – İstanbul: TDVY, 1999. – S. 478-479.
9. Anna Kommena. Alexiad (çev.Bilge Umar). – İstanbul: İnkilap Kitabevi, 1996. – 570 s.
10. A.D.Kuşçu, C.Güler, M.Özer, M.Öztemel. Selçuklu Tarihçiliği’ne Başlarken. – Konya: Necmettin Yerbakan Üniversitesi, 2017. – 521 s.
11. Gülseri Begüm Okudan. Zeynü’l-Ahbâr (Tâhirîler, Saffârîler, Sâmânîler ve Gazneliler)// Tarih Kritik. Sayı 4, 8.cilt, 2022. – S. 282-284.
12. Gümüş Yercan. İbnü’l-Ezrak ve yeseri “Meyyâfârikîn ve Âmîd Tarihi” üzerine Türkie’de yapılan çalışmalar ışığında bir değerlendirme // ye-Şarkiyat İlmi Araştırmalar Dergisi. Sayı 7, 2012. – S. 3-13.
13. Hrand D. Andreasyon. Türk Tarihine Aid Yermeni Kaynakları // İstanbul Üniversitesi Yedebiyat Fakültesi Tarih Dergisi. C. 1, Sayı 1, 1949. – S. 95-118.
14. İsmail Aka. Aksarâyî, Kerîmüddin // Türkie Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. C. 2. – İstanbul: TDVY, 1989. – S. 293.
15. Mikhael Attaleiates. Tarih (çev. Bilge Umar). – İstanbul: Arkeoloji ve Sanat, 2008. – 327 s.
16. Muhammet Kemaloğlu. Türkie Selçuklu Tarihi Birinci Yelden Kaynakları // Journal of History Culture and Art Research. vol.2, No.3, 2013. – P. 1-38.
17. Muharrem Kesik. Selçuklular tarihi. – İstanbul: İstanbul üniversitesi, 2010. – 364 s.
18. Muhammet Kemaloğlu. Türkie Selçuklu Devletinin III. Hükümdarı Şahinşah Dönemi ve Şahinşah’ın Şahsieti // Orkun Dergisi. Sayı 88-89, 2004. – S. 1-8.
19. Nikephoros Brennios. Tarihin Özü (çev. Bilge Umar). – İstanbul: Arkeoloji ve Sanat, 2008. – 187 s.
20. Osman Gazi Özgüdenli. Zahîrüddîn-i Nîsâbûrî // Türkie Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. C.44. – İstanbul: TDVY, 2013. – S. 102-103.
21. Osman Turan. Selçuklular tarihi ve Türk-İslam medenieti. – İstanbul: Turan neşriyat yurdu, 1969. – 478 s.
22. Orhan Bilgin. Gerdizi // Türkie Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. C.14. – İstanbul: TDVY, 1996. – S. 29-30.
23. Ramazan Şeşen. Müslümanlarda Tarih-Coğrafya Yazıcılığı. – İstanbul: İslam Tarih, Sanat ve Kültürünü Araştırma Vakfı, 1998. – 451 s.
24. Reşidud-din. Câmi ut-tevârih: Selçuklu devleti (Farsçadan Çevirenler Yerkan Göksu H.Hüseyin Güneş). – İstanbul: Selenge yayınları, 2010. – 311 s.
25. Tahsin Yazıcı. Târîh-i Beyhakī // Türkie Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. C.40. – İstanbul: TDVY, 2011. – S. 74-75.
26. Yusuf Ayönü. İzmir’de Türk Hâkimietinin Başlaması // Türk Dünyası İncelemeleri Dergisi. C.9. Sayı 1, 2009. – S. 1-8.
27. Yusuf Ayönü. Selçuklu-Bizans Münasebetleri (1116-1308) / Doktora Tezi. – İzmir: Yege Üniversitesi Sosyal Bilimler Yenstitüsü, 2007. – 290 s.

REFERENCES

1. Abdülkerim Özaydın. Hamdullah yel-Müstevfî // Türkie Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. C. 15. – İstanbul: TDVY, 1997. – S. 454-455.
2. Abdülkerim Özaydin. Nizâmülmülk // Türkie Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. C.33. – İstanbul: TDVY, 2007. – S. 194-196.
3. Abdülkerim Özaydın. Tarih-i-Guzide // Türkie Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. C. 40. – İstanbul: TDVY, 2011. – S. 82-83.
4. Abdülkerim Özaydın. İbnü’l-Esîr, İzzeddin // Türkie Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. C. 21. – İstanbul: TDVY, 2000. – S. 26-27.

5. Abdülkerim Özaydın. İbnü'l-İbrî. // Türkie Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. C. 21. – İstanbul: TDVY, 2000. – S. 92-94.
6. Ali Sevim. Azimi // Türkie Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. C.4. – İstanbul: TDVY, 1991. – S. 330-331.
7. Ali Sevim. İbnü'l-Kalânisî'nin Zeylü Tarih-i Dımask adlı aserinde Selçuklularla ilgili bilgiler I (1044-1106) // Belgeler. 29.Cilt. Sayı 33, 2008. – S. 1-43.
8. Ali Sevim. İbnü'l Adim // Türkie Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. C. 20. – İstanbul: TDVY, 1999. – S. 478-479.
9. Anna Kommena. Alexiad (çev.Bilge Umar). – İstanbul: İnkilap Kitabevi, 1996. – 570 s.
10. A.D.Kuşçu, C.Güler, M.Özer, M.Öztemel. Selçuklu Tarihçiliği'ne Başlarken. – Konya: Necmettin Yerbakan Üniversitesi, 2017. – 521 s.
11. Gülseri Begüm Okudan. Zeynü'l-Ahbâr (Tâhirîler, Saffârîler, Sâmânîler ve Gazneliler)// Tarih Kritik. Sayı 4, 8.cilt, 2022. – S. 282-284.
12. Gümüş Yercan. İbnü'l-Ezrak ve yeseri "Meyyâfârikîn ve Âmîd Tarihi" üzerine Türkie'de yapılan çalışmalar ışığında bir değerlendirme // ye-Şarkiyat İlmi Araştırmalar Dergisi. Sayı 7, 2012. – S. 3-13.
13. Hrand D. Andreasyon. Türk Tarihine Aid Yermeni Kaynakları // İstanbul Üniversitesi Yedebiyat Fakültesi Tarih Dergisi. C. 1, Sayı 1, 1949. – S. 95-118.
14. İsmail Aka. Aksarâyî, Kerîmüddin // Türkie Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. C. 2. – İstanbul: TDVY, 1989. – S. 293.
15. Mikhael Attaleiates. Tarih (çev. Bilge Umar). – İstanbul: Arkeoloji ve Sanat, 2008. – 327 s.
16. Muhammet Kemaloğlu. Türkie Selçuklu Tarihi Birinci Yelden Kaynakları // Journal of History Culture and Art Research. vol.2, No.3, 2013. – P. 1-38.
17. Muharrem Kesik. Selçuklular tarihi. – İstanbul: İstanbul üniversitesi, 2010. – 364 s.
18. Muhammet Kemaloğlu. Türkie Selçuklu Devletinin III. Hükümdarı Şahinşah Dönemi ve Şahinşah'ın Şahsieti // Orkun Dergisi. Sayı 88-89, 2004. – S. 1-8.
19. Nikephoros Brennios. Tarihin Özü (çev. Bilge Umar). – İstanbul: Arkeoloji ve Sanat, 2008. – 187 s.
20. Osman Gazi Özgüdenli. Zahîrüddîn-i Nîsâbûrî // Türkie Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. C.44. – İstanbul: TDVY, 2013. – S. 102-103.
21. Osman Turan. Selçuklular tarihi ve Türk-İslam medenieti. – İstanbul: Turan neşriyat yurdu, 1969. – 478 s.
22. Orhan Bilgin. Gerdizi // Türkie Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. C.14. – İstanbul: TDVY, 1996. – S. 29-30.
23. Ramazan Şeşen. Müslümanlarda Tarih-Coğrafya Yazıcılığı. – İstanbul: İslam Tarih, Sanat ve Kültürünü Araştırma Vakfı, 1998. – 451 s.
24. Reşidud-din. Câmi ut-tevârih: Selçuklu devleti (Farsçadan Çevirenler Yerkan Göksu H.Hüseyin Güneş). – İstanbul: Selenge yayınları, 2010. – 311 s.
25. Tahsin Yazıcı. Târîh-i Beyhakī // Türkie Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. C.40. – İstanbul: TDVY, 2011. – S. 74-75.
26. Yusuf Ayönü. İzmir'de Türk Hâkimietinin Başlaması // Türk Dünyası İncelemeleri Dergisi. C.9. Sayı 1, 2009. – S. 1-8.
27. Yusuf Ayönü. Selçuklu-Bizans Münasebetleri (1116-1308) / Doktora Tezi. – İzmir: Yege Üniversitesi Sosyal Bilimler Yenstitüsü, 2007. – 290 s.